

OLAY MALIKASI

Vaxobov Dastonbek Abdumannob o‘g‘li

University of business and science
nodavlat oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda Qo‘qon xonligo davraida yashab o‘tgan davlat arbobi qurbanjon dodxoh shaxsiyati hayot faoliyati, general Skobelev bilan muzokalari va podsho hukumatiga qarshi bo‘lib o‘tgan qo‘zgolonlar hamda Qurbonjon dodxohning mamlakat mustaqilligi uchun harakatlari haqida qisaqacha ma’lumot berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Mullo Is’hoq Mulla Hasan o‘g‘li, Yetimxon, Darvishxon, Vose, Rahmonqulixoji va Mirkarimboy, Dukchi eshon, Vabo isyoni yoki Toshotar voqeasi, Skobelev, Kaufman.

Qurbanjon dodxoh – Qurbonjon Mamatqizi (1811 – 1907) O‘sh yaqinidagi Modi qishlog‘ida tug‘ilgan. Yoshligidanoq mustaqil fikri, metin irodasi va tadbirkorligi bilan atrofdagilar maqtoviga sazovor bo‘lgan.Qo‘qon xonligi vaziri Olimbek dodxoh Hasanboy o‘g‘li (1800 – 1863)ning rafiqas bo‘lgan. Olimbek dodxoh Qashqardan qaytishda unga uylangan va xonlik poytaxtiga olib kelgan[1]. Olimbek Qo‘qon xoni Madalixon(1821-1841) davridayoq xonlik siyosiy hayotida faol ishtirokchi bo‘lgan. 1831-yilda xon tomonidan Oloylik qirg‘izlarga dodxoh deb e’lon qilinadi. Olimbek dodxoh adigine qabilasining barg‘i urug‘idan chiqqan. U xonlik zukmiga qarshi qaratilgan xalq harakatining boshida turib, el-yurt uchun toliqmay kurashgan edi.1858-1861-yillarda Andijon hokimi vazifasuni bajaradi[2]. Xonlikka kelgan Qurbonjoni Olimbek zamonasining oqila va fozila ayollari Nodirabegim hamda Uvaysiyalar bilan tanishtiradi. Ularning ta’sirida Qurbonjonning dunyoqarashi kengayadi, davlat va jamiyat hayoti haqida mustaqil tushunchalari shakllanadi. Oila birgalikda 5 o‘g‘il va 2 qizning ota-onasiga aylanadi. Biroq 1863-yilda hokimiyat uchun kurashlarda Olimbek dodxoh fitna qurban ni bo‘lib, vafot etadi[3]. Bu voqeadan so‘ng Qurbonjon ma’lum vaqt Andijon hokimi vazifasini bajaradi. So‘ngra farzandlarini olib, o‘z ovuliga jo‘nab ketadi. U Oloy malikasi sifatida nom chiqaradi. Qurbonjon o‘ziga xos shijoat, mohir diplomatiya, jasurlik xususiyatlariga ega tarixiy shaxs hisoblanadi Amir yordamida taxtni qayta egallagan Qo‘qon xoni Xudoyorxon esa Qurbonjon dodxohni Olay vohasining hokimi etib tayinlaydi[4]. Shuningdek, u yana Qashqardagi Yettishahar uyg‘ur davlati hukmdori Yoqubbek bilan yaxshi munosabatlar o‘rnata olgan.

Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori maqtanchoq va olchoq Skobelov Qurbonjon dodxoh bilan muzokaralar boshlashga majbur bo‘ladi. U tinchlik bitimini tuzish uchun O‘sh uyezdi hokimi mayor Ionovni yuboradi. Mag‘rur va qo‘rqmas Qurbonjon dodxoh mayorni qabul qilmaydi. U faqatgina mavqeyi o‘zi bilan teng keladigan qo‘mondon bilan muzokara olib borishga rozi ekanligini ma’lum qiladi. Natijada 1876-yilning oxirida general Skobelovning o‘zi Qurbonjon dodxoh bilan muzokaralar olib borishga majbur bo‘ladi va uning talablarini inobatga olishdan boshqa chorasi qolmaydi. Ushbu uchrashuv haqida quyidagicha ma’lumot mavjud:

“Malika boshini quyi solgancha shamdek qotib turar edi. Skobelov uning yoniga kelib qo‘lini uzatdi. Malika kutilmagan salomdan dovdirab qoldi, lekin darrov o‘zini qo‘lga olib, qirg‘izchalab nimalardir dedi. Skobelov esa tilmochga qarab dedi:

-Dodxohga ayting. Men uni sihat-salomat ko‘rganimdan xursandman. Men uning dono hokimligi haqida ko‘p eshitganman. Qo‘shni xonlar hurmat-e’tibori kattaligini ham bilaman. Aminmanki, u dushmanga qarshilik ko‘rsatish befoyda ekanligini yaxshi tushunadi va Oloyning ko‘chmanchi aholisini tinchlikka unday oladi. Unga yana shuni ham aytingki, u ona sifatida o‘z o‘g‘illari bilan faxrlanishi mumkin. U yana shuni bilsinki, ruslar jasur dushmanlarini hurmat qiladilar. Agar u o‘z o‘g‘illarini Oloyga qaytishga ko‘ndirsa, men ularni botirlar sifatida mukofotlayman. Endi esa men dodxohni dasturxonimga taklif etaman.

Generalning buyrug‘iga ko‘ra uning oldiga noz-ne’matlar tog‘dek uyulgan katta patnis keltirildi. Ziyofatdan so‘ng esa Skobelov o‘z qo‘li bilan malikaning yelkasiga zarrin to‘n yopdi”[5].

Dodxohning irodasi baquvvat, matonatli ayol bo‘lganligi, har qanday vaziyatda ham g‘ururini saqlab qolganligi, bosqinchi ajnabiylar hech qanday yo‘l bilan bosh egdira olmaganligiga yuqorida ishonchli misollar keltirildi. Biroq shunday vaziyat sodir bo‘lgandiki, Olay malikasining bardoshi juda qattiq sinovdan o‘tkaziladi. Qurbonjon dodxohnning kichik o‘g‘li 1895-yilda Qamchibek Kaufman tomonidan qo‘lga olinib osishga hukm qilinadi[6]. Akademik shoir G‘afur G‘ulom bu voqeani ayta turib shunday so‘zlarni keltiradi: “Dodxoh qatl vaqtida dor tagiga kelib, o‘g‘liga xitoban:

-Xayr, o‘g‘lim, ota-bobolaring ham dushman qo‘lida halok bo‘ldi, shahid o‘lmoq bizga meros. Senga bergen sutim oq bo‘lsin! – deya olgan va otining jilovini ters burib, o‘g‘lining tortayotgan azoblarinidan shartta yuz o‘girib ketgan ayoldir”.

Olay malikasi chin ma’noda To‘marisning mardonavor va dovyurak davomchisi bo‘lgan. U o‘z qahramonligi bilan avlodlar qalbida, tarix sahifalarida o‘chmas iz qoldirgan. Dodxohning nabira avlodlari keying yillarda ham, xususan, 1898-yilda ruslarga qarshi qaratilgan qo‘zg‘alonlarda faol ishtirot etadilar. Malikaning o‘zi esa Olay vohasida, so‘ngra O‘sh yaqinidagi ona qishlog‘ida uzoq yashab, 96 yoshida vafot

etadi. Farg‘ona vodiysi aholisi o‘rtasida ko‘plab qo‘shiqlar va rivoyatlar yaratilgan Modi qishlog‘ida uy-muzeyi mavjud. Uning xotirasini abadiylashtirish uchun Farg‘ona va O‘shda ko‘chalar, maktablar dodxoh nomin berilgan.

Qurbanjon qo‘zg‘aloni bosqinchilarga qarshi yakdillik va dadillik bilan olib borilgan milliy-ozodlik harakati edi .Uning ta’siri o‘laroq, chor ma’murlari o‘lka aholisi bilan kelishuv yo‘lini izlashga, tarixda ilk marotoba isyonchilar talablarini qabul qilishga majbur bo‘ldi. Tarixda kam uchraydigan holat sodir bo‘ldi, ya’ni qo‘zg‘alon boshlig‘ining dovrug‘i-yu mavqeyi hukmdor tomonidan tan olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Sodiqov H., Jo‘rayev N. O‘zbekistonning yangi tarixi (Turkiston Chorizm mustamlakchiligi davrida) 1-kitob. –T.: “Sharq” 2011. –B.211-212
2. Omurbekov T., Chorategin T. Qirg‘iziston tarixi (XIX asr). O‘sh – Bishkek,2009.- B.103-104
3. Sodiqov H., Jo‘rayev N., Ozbekistonning yangi tarixi (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) 1-kitob. –T.: Sharq,2011. – B.212
4. Abaza K.K. Turkiston istilosи (harbiy tarixdan hikoyalar) – Sankt-Peterburg - 1902. B.245 – 251
5. Chorategin T., Omurbekov T. - Qirg‘iziston tarixi (XIX asr boshi – 1917-yil) – Jalolobod 2000-y. – B.140
6. Abdurazzaqov Sh. Qirg‘iz xalqining milliy qahramoni Qurbojon dodxoh// Ta’limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanishi/. – T.:Rishton XTB,2021. – B.79